

*Jizzakh State Pedagogical Institute*



**Journal of Preschool  
Education**

*The faculty of pre-school  
education*

# **Bugungi kunda ingliz tilini o'qitishni maktabgacha ta'lim jarayonidan boshlashning ahamiyati**

**Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til yo'nalishi**

**541-19-guruh talabalari Abdurashidova Ozoda**

**Turatova Ma'mura**

## **Annatatsiya**

Dunyo globallashuv jarayoni insonlardan o'z ona tilidan tashqari yana bir nechta xorijiy tillarni o'rganishni taqozo qilmoqda. Hozirgi tadqiqotlar ushbu jarayonni erta yoshdan boshlash samaraliroq bo'lishini ko'rsatmoqda. Bizning yurtimizda ham ushbu masalaga qat'iy e'tibor qaratilmoqda. Xorijiy tillarni bilish konikmasi professional ta'limning ajralmas qismlaridan biri bolib bormoqda. Bu maktabgacha ta'lim jarayonini ham chetda qoldirgani yo'q. Hozirgi kunda maktabgacha ta'limga etibor berish, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy ma'naviy jihatdan rivojlantirish demakdir. Shuni ham ta'kidlab o'tishim kerakki, muvaffaqiyatga erishishda yordam berish uchun maktabgacha tarbiya mutaxassislaridan erta bolalik ta'limi jarayonida eng sevimli o'qitish strategiyalari bilan o'rtoqlashishini so'rab qolamiz. Maktabgacha yoshdagi sinf uchun o'qitish strategiyalarining ushbu ro'yxati o'qituvchi sifatida taraqqiy etish va o'rganish uchun juda yaxshi o'tish imkoniyatlarini beradi.

**Kalit so'zlar:** xorijiy til – ingliz tili ,til o'rganish ilk bog'cha yoshida , xotira, qobilyat, metod, texnologiya, intellektual o'yin, ta'lim texnologiyalari , rivojlanish.

Bolalarning har 70% ini 6 yoshgacha bo'lgan davrda olishi aynan bola shaxsining rivojlanishida , maktabgacha ta'limning o'zni nechog'li muhimligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 16- avgust kuni o'tkazilgan yig'ilishida maktabgacha ta'lim muassasalariga 5-6- yoshli bolalarni 100% qamrab olish choralari belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta'lim Vazirligi faoliyatini

tashkil etish tog'risida" gi qarori qabul qilindi. Davlat talablarining maqsadi ham mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarini , xorijiy mamlakatlar ilg'or tajjribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir. Ya'ni shu o'rinda ajdodlarimizning „Yoshlikda olingan bilim toshga bitilgan naqsh kabidir“. degan fikrni o'z isbotini topadi.

Dunyo olimlari 10 yoshgacha bo'lgan davrda bola chet tilini oson o'zlashtirish haqida yakdil fikr bildirishgan .Bu davrda bola tillarini tushunib emas , balki mexanik tarzda o'rganadi. Shuning uchun xorijiy tilni qo'llanilishi va talaffuzi oson o'zlashtiriladi. Ammo shunday bo'lsada , bolaning har qanday tilning tovushlarini taqlid qilish qobilyati bilan tug'ilishni hisobga olsak , bu jarayonni ertaroq boshlash tavsiya etilgan. Chaqoloq tug'ilishidan 3 yoshgacha bo'lgan davr bola rivojlanishining eng muhim davri ekanligi isbotlangan. **1.1** <sup>i</sup>

Agar dastlabki tashkil etilgan maktabgacha ta'lim muassasalarining ish jarayoniga nazar tashlaydigan bo'lsak , ota-onalar ish vaqtlari sabab shunchaki bolalarini o'zlaridan holi qilish maqsadida foydalanishgan . Bugungi kunda esa, o'tgan davrlar mobaynida shakllantirilib, rivojlantirilib hozirgi kunning eng muhim tashkilotlari qatoridan o'rin egallaganligi barchamizga ma'lum. Ya'ni 2-3 yoshgacha bo'lgan bolalar bog'chaga borishining shart qilib belgilanishi va u yerda dastlabki bilimlarning berilishi , berilgan dars mashg'ulotlaridan tashqari ularni turli to'garaklarga jalb qilinishi , 5-6 yoshli bolalarni alohida „Maktabga tayyorlov guruhi“ sifatida shakllantirish kabi jihatlariga e'tibor qaratilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarga erta yoshdan bilim berishning va ularning har qanday bilimlarni , hatto chet tillarini o'rganishdagi samaradorligining yuqori bo'lishini ko'rsatmoqda. Bu davrda bolalarda bilim olishga , yangi ma'lumotlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ancha yuqori bo'ladi. Biz bilamizki , chet tillarini , xususan , ingliz tilini o'rganish bir muncha murakkab jarayon. Shuning uchun bu jarayon bolalarga erta yoshdan o'rgatilsa , natija samaraliroq bo'ladi. Chunki bolalar bu davrda miya faoliyati ayni rivojlanish davrida bo'ladi va kattalarga nisbatan yangi ma'limotlarni bir

muncha tezroq qabul qilishadi va eslab qola olishadi , biror ishni xato qilib qo'yishdan qo'rqishmaydi , qiziqqan savollariga javob olmagunlaricha intilishdan to'xtashmaydi. Qolaversa , boshqa tillarni talaffuz qilishda kattalardagidek qiyinchilikka uchrashmaydi. Bog'cha yoshdagi bolalarda o'qish , yozish ko'nikmalari to'laligicha shakllanmaganligi sababli o'yinlar , qoshiqlar , she'rlar orqali o'rgatish sezilarli natijalarni ko'rsatadi. Bolalarning maktab va bog'cha yoshida eng asosiy va sevimli mashg'uloti o'yin bo'lganligi sababli bola atrof-muhit , olamni o'yin orqali kashf etadi . Agar xorijiy tillarni ham o'yinga qorishtirgan holda o'rgatilsa , bu til ko'nikmalarining samaradorligini bir necha barobarga oshiradi. Qolaversa , bolalar o'yin orqali o'z jismoniy faolliklarini hamda ruhiy va aqliy rivojlanishlarini ham shakllantirishga muvaffaq bo'ladilar. Shu sababli ota-ona va tarbiyachi murabbiylar imkon qadar ko'proq o'yin orqali o'rganishni targ'ib qilishsa , bolalar ta'lim olish orqali o'z iqtidorlarini kashf etadilar. Buning uchun esa ko'rish, eshitish, kinestatik kabi faol ta'lim turlaridan foydalanish aynan kutilayotgan natijalarga erishishning samarali vositalaridir. Ta'limiy o'yinlar musiqa asboblarini chalish , qo'shiqlar kuylash , she'r aytish , raqsga tushish , o'yin o'ynash , videolar tomosha qilish , qo'l mehnati vositasida turli narsalar yasashni o'z ichiga oladi. Natijada bolalar ham o'ynaydilar , ham rivojlanadilar , ham o'rganadilar.

**Xulosa.** Shuni xulosa qilib aytib o'tish kerakki, O'zbekistonimizning yoshlari yetuk kadr bolib yetishlarida avvalambor, maktabgacha talimning o'rni ahamiyatlidir. Ularni zamonaviy texnologiyalar va zamonaviy talim tizimi bilan ta'minlashimiz talab etiladi. Maktabgacha ta'lim jamiyatdagi har bir inson ildizlarining rivojlanishi, *1.2* <sup>1</sup>ya'ni ularning kelajakda ona yurtiga munosib farzand, kuchli shaxs bolib voyaga yetishlarida ham katta ahamiyatga ega. Farzandlar ta'limiga ko'proq e'tibor berilishi, zamonaviy shart-sharoitlar yaratilishi, yangi-yangi usullar orqali ularning o'rganishlariga ko'maklashish zarur. Chet tillarini o'rganish bolalarga kelajakda yangi imkoniyatlar eshigini ochilishi, malakali kadr bolib yetishishi, butun jamiyat uchun nafi tegadigan shaxs bolib kamol topishi uchun ham ahamiyatlidir. Shuning uchun ham bolalarga yoshligidan ta'lim berib

borilishi kuchli shaxs bolib voyaga yetishlarida ham katta ahamiyatga ega. Mamlakatimiz biz farzandlarning talimiga ko'proq etibor berishi, zamonaviy shart-sharoitlar, o'qishga qiziqtirilishi, jamiyatimizdagi har bir bolani nazardan chetda qoldirilmaslighi, o'rganishga qiynalgan bolalar bilan ham alohida shug'ullanilishi, turli xil qiziqarli o'yinlar bilan e'tiborlarini tortishi, chet tillarini o'rgatish davomida muntazam rag'batlantirib borilishi ularni kelgusidagi ta'limlari uchun dastlabki qadam bo'ladi, desak adashmagan bo'lamiz.

---

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillatirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261-son qarori;
2. O'z DSt 17368–2020 “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash haqida ”
3. <https://www.cde.ca.gov/sp/cd/re/caqdevelopment.asp>. Ages and Stages of Development
4. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich maktab o'quvchilariga chet tilini o'rgatishda o'yinlar. Baxramova M. D. Tuzuvchi: Baxramova M. D., — T.2016.
5. <https://raisingchildren.net.au/newborns/play-learning/play-ideas/why-play-is-important> internet resurs
6. Early childhood education in English for speakers of other languages by ViAdam, Bob and Morris Paul (1997)